

RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TALQINLARI

Vaisov Dilshod Ibodullayevich

Ma'mun universiteti

“Biznesni boshqarish” kafedrası i.f.f.d., PhD.

ORCID: 0009-0001-6293-1498

E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqobatbardoshlik nazariyalarining shakllanishi, evolyutsiyasi va zamonaviy talqinlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda klassik iqtisodiy maktab, tadbirkorlik, innovatsion rivojlanish, strategik yondashuv, resurs salohiyati, asosiy kompetensiyalar, dinamik qobiliyatlar, institutsional va raqamli yondashuvlar qiyosiy o'rganildi. Nazariyalarning rivojlanish bosqichlari xronologik tizimlashtirilib, ularning raqobat ustunligini shakllantirishdagi o'rni baholandi. Natijalar zamonaviy sharoitda xarajatlar, innovatsiyalar, ichki resurslar, institutsional muhit va raqamli yetuklikni kompleks uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Taklif etilgan integratsiyalashgan konseptual model korxona raqobatbardoshligini majmuaviy baholash va boshqarish uchun nazariy-uslubiy asos yaratdi, shuningdek, nazariy yondashuvlarning kuchli va cheklangan jihatlarini bir tizimda solishtirish imkonini berdi. Model raqobat ustunligini shakllantiruvchi an'anaviy va zamonaviy determinantlarning o'zaro ta'sirini izchil talqin qilishga xizmat qildi.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, raqobat ustunligi, klassik nazariya, innovatsion rivojlanish, resurs salohiyati, dinamik qobiliyatlar, institutsional muhit, raqamli transformatsiya.

Аннотация

В статье были научно проанализированы формирование, эволюция и современные интерпретации теорий конкурентоспособности. В исследовании были сравнительно рассмотрены классическая экономическая школа, предпринимательский и инновационный подходы, стратегическое управление, ресурсная концепция, ключевые компетенции, динамические способности, институциональный и цифровой подходы. Этапы развития теорий были систематизированы в хронологической последовательности, а их роль в формировании конкурентных преимуществ была оценена. Результаты показали необходимость комплексного сочетания затратных факторов, инноваций, внутренних ресурсов, институциональной среды и цифровой зрелости. Предложенная интегрированная модель создала теоретико-методическую основу для комплексной оценки конкурентоспособности предприятий и сопоставления сильных и ограниченных сторон основных теоретических направлений, а также для систематизации факторов устойчивого конкурентного преимущества в условиях современной цифровой экономики.

Ключевые слова: конкурентоспособность, конкурентное преимущество, классическая теория, инновационное развитие, ресурсный потенциал,

динамические способности, институциональная среда, цифровая трансформация.

Abstract

This article scientifically analyzed the formation, evolution, and modern interpretations of competitiveness theories. The study comparatively examined the classical economic school, entrepreneurship theory, innovation-based development, strategic management, the resource-based view, core competencies, dynamic capabilities, institutional approaches, and digital perspectives. The stages of theoretical development were systematized chronologically, and their roles in forming competitive advantages were assessed. The findings showed the importance of integrating cost efficiency, innovation, internal resources, institutional conditions, and digital maturity. The proposed integrated conceptual model provided a theoretical and methodological basis for assessing enterprise competitiveness and comparing the strengths and limitations of major theoretical approaches, under conditions of the modern digital economy.

Keywords: competitiveness, competitive advantage, classical theory, innovation development, resource-based view, dynamic capabilities, institutional environment, digital transformation.

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi hamda xalqaro raqobatning kuchayishi sharoitida raqobatbardoshlik iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylangan. Zamonaviy iqtisodiyotda korxona, tarmoq va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan ularning raqobat ustunliklarini shakllantirish va saqlab qolish qobiliyatiga bog'liqdir. Shu bois raqobatbardoshlik nazariyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy talqinlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega mavzu bo'lib hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda raqobatbardoshlik masalalari klassik iqtisodiy maktab vakillaridan boshlab zamonaviy institutsional va raqamli yondashuvlarga keng tadqiq etilgan. Biroq, ko'pchilik mavjud tadqiqotlarda raqobatbardoshlik nazariyalarining o'zaro bog'liqligi, ularning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy iqtisodiyot sharoitidagi integratsiyalashgan talqini yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi raqobatbardoshlik nazariyalarining evolyutsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos integratsiyalashgan konseptual yondashuvni shakllantirishdan iborat. Tadqiqot natijalari raqobatbardoshlikni baholash va boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobatbardoshlik nazariyalari iqtisodiyot fanida uzoq evolyutsion rivojlanish tarixiga ega bo'lib, ularning zamonaviy talqinlari iqtisodiy muhit, institutsional omillar va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan boyib borgan. O'zbek iqtisodiy maktabida raqobatbardoshlik masalalari iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik faoliyati va bozor infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq holda o'rganilgan. O.A. Aripov raqobat

muhitini rivojlantirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va biznes sharoitlarini takomillashtirishni korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillari sifatida baholagan [1].

G.L. Azoev korxona raqobatbardoshligini strategik tahlil va boshqaruv nuqtai nazaridan tadqiq etib, korxonaning bozordagi holatini raqobatchilar bilan qiyoslash hamda ustunliklarni shakllantirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratgan [2]. R.A. Fatkhutdinov esa raqobatbardoshlikni tashkilot faoliyatining ko'p omilli natijasi sifatida talqin qilib, uni boshqarishda strategik rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion rivojlanishning o'rnini asoslagan [5]. Y.B. Rubin raqobat va raqobatbardoshlikning nazariy asoslarini tizimlashtirib, bozor subyektlari o'rtasidagi raqobat munosabatlarini korxona strategiyasi bilan bog'liq holda yoritgan [12].

Raqobatbardoshlik nazariyasining rivojlanishida innovatsion yondashuv alohida o'rin egallagan. J.A. Schumpeter iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyatini ko'rsatgan hamda yangi mahsulot, texnologiya va bozorlarning paydo bo'lishini raqobat ustunligining muhim manbai sifatida talqin qilgan [13]. Ushbu yondashuv raqobatbardoshlikni statik holat emas, balki doimiy yangilanish va texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq dinamik jarayon sifatida tushunishga asos yaratgan.

M. Porterning strategik yondashuvi raqobatbardoshlik nazariyasining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning raqobat strategiyasi konsepsiyasida tarmoqdagi raqobat kuchlari, bozor tuzilmasi va korxonaning strategik pozitsiyasi raqobat ustunligini belgilovchi omillar sifatida asoslangan [10]. Keyinchalik Porter milliy raqobat ustunligi konsepsiyasini ishlab chiqib, mamlakat va hududlarning raqobatbardoshligini ishlab chiqarish omillari, talab sharoitlari, aloqador tarmoqlar va korxonalar strategiyasining o'zaro ta'siri orqali izohlagan [11].

Resurslarga asoslangan yondashuv korxonaning ichki imkoniyatlarini raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida ko'rsatgan. B. Wernerfelt korxona resurslarini strategik tahlil obyekti sifatida ko'rib, noyob va samarali foydalaniladigan resurslar barqaror ustunlik yaratishini asoslagan [15]. J.B. Barney ushbu yondashuvni rivojlantirib, qiymatli, noyob, taqlid qilish qiyin va o'rnini bosish murakkab bo'lgan resurslar uzoq muddatli raqobat ustunligining manbai bo'lishini ko'rsatgan [3]. G. Hamel va C.K. Prahalad esa "asosiy kompetensiyalar" tushunchasini ilgari surib, korxonaning noyob bilim, ko'nikma va texnologik imkoniyatlarini strategik ustunlik manbai sifatida baholagan [6].

D.J. Teece, G. Pisano va A. Shuen tomonidan ishlab chiqilgan dinamik qobiliyatlar konsepsiyasi raqobatbardoshlikni tez o'zgaruvchi bozor sharoitlariga moslashish nuqtai nazaridan izohlagan. Mualliflar korxonaning resurslarini qayta konfiguratsiya qilish, yangi imkoniyatlarni aniqlash va o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyatini barqaror raqobat ustunligining muhim sharti sifatida asoslagan [14]. Mazkur yondashuv innovatsion moslashuvchanlik va strategik yangilanishning zamonaviy raqobatbardoshlikdagi o'rnini yanada kuchaytirgan.

Institutsional yondashuvda raqobatbardoshlik tashqi iqtisodiy va huquqiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilingan. D.C. North institutlar, rasmiy va norasmiy qoidalar hamda ularning iqtisodiy faoliyatga ta‘sirini tahlil qilib, institutsional sifat iqtisodiy samaradorlikning muhim omili ekanligini asoslagan [9]. K.I. Kurpayanidi Markaziy Osiyo sharoitida tadbirkorlik muhiti va institutsional rivojlanish masalalarini o‘rganib, korxonalar raqobatbardoshligi iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatgan [8].

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi raqobatbardoshlik nazariyasiga yangi omillarni olib kirgan. R. Bukht va R. Heeks raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning chegaralari va o‘lchov mezonlarini tizimlashtirib, raqamli texnologiyalarni iqtisodiy faoliyatning yangi strategik resursi sifatida baholagan [4]. R. Heeks axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy va institutsional rivojlanishdagi rolini chuqur tahlil qilib, raqamli infratuzilma, ma‘lumotlar va texnologik imkoniyatlar korxonalar raqobatbardoshligini shakllantirishda tobora muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatgan [7].

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqobatbardoshlikning hududiy va tarmoq xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratilgan. D.I. Vaisov raqobatbardoshlik tushunchasining mazmuni va tasnifini tahlil qilgan [16], Xorazm viloyati misolida kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq mintaqaviy muammolarni o‘rgangan [17]. A. Sa’dullayev, D. Vaisov va F. Egamberganov hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini tahlil qilgan [18]. Shuningdek, D.I. Vaisov va S.K. Salayev tibbiy xizmatlar bozorida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik rivojlanishini tadqiq etgan [19], keyingi izlanishlarda esa tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini baholash usullarini takomillashtirish masalalari yoritilgan [20].

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada raqobatbardoshlik nazariyalarining shakllanishi va evolyutsiyasini o‘rganishda tizimli, qiyosiy va tarixiy-mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini klassik raqobat nazariyasi, strategik boshqaruv, resurslarga asoslangan yondashuv, asosiy kompetensiyalar, dinamik qobiliyatlar, institutsional nazariya va raqamli transformatsiya konsepsiyalari tashkil etdi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda kontent-tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish hamda taqqoslash usullari qo‘llanildi. Nazariyalar rivojlanish bosqichlari xronologik tartibda tizimlashtirilib, ularning raqobat ustunligini shakllantirishdagi o‘rni baholandi. Ichki resurslar, innovatsion salohiyat, institutsional muhit va raqamli yetuklikning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida korxona raqobatbardoshligini baholash va boshqarishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan konseptual yondashuv shakllantirildi. Mazkur metodologiya nazariy qarashlarni yagona tizimda solishtirish, ularning kuchli va cheklangan jihatlarni aniqlash hamda zamonaviy raqobatbardoshlik omillarini kompleks talqin qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobatbardoshlik iqtisodiyot fanining eng murakkab va ko‘p qirrali kategoriyalaridan biri hisoblanib, uning mazmuni iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan birgalikda takomillashib borgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqobatbardoshlik tushunchasi dastlab bozor mexanizmining samaradorligini tavsiflovchi kategoriya sifatida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik korxona, tarmoq, hudud va milliy iqtisodiyot darajasidagi ustunliklarni ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida rivojlangan. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda esa raqobatbardoshlik innovatsion salohiyat, institutsional muhit, bilimlar iqtisodiyoti va raqamli transformatsiya bilan bog‘liq holda talqin qilinmoqda.

1-jadval

Raqobatbardoshlik nazariyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy talqinlari¹

Bosqich	Davr	Nazariya/Yonda-shuv	Asosiy vakillar	Asosiy mazmuni	Raqobat ustunligi manbai
I-bosqich	XVIII-XIX asrlar	Klassik iqtisodiy maktab	A. Smit, D. Rikardo, A.Marshall	Raqobat bozor muvozanatini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qilinadi	Xarajatlar samaradorligi, nisbiy ustunlik, resurslardan oqilona foydalanish
II-bosqich	XIX asr oxiri - XX asr boshlarida	Tadbirkorlik nazariyasi	R.Kantilon F.Nayt	Tadbirkor risk va noaniqlik sharoitida qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida qoraladi	Risklarni boshqarish, moslashuvchanlik, tadbirkorlik qobiliyati
III-bosqich	XX asr boshlarida	Innovatsion rivojlanish nazariyasi	Y.Shumpeter	Innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanish va raqobatning asosiy manbai hisoblanadi	Innovatsiyalar, yangi mahsulotlar va texnologiyalar
IV-bosqich	XX asr ikkinchi yarmi	Strategik yondashuv	M.Porter	Korxonaning bozordagi pozitsiyasi va strategik ustunliklari muhim ahamiyatga ega	Xarajatlar ustunligi, differensiallashuv, qiymat zanjiri
	XX asr ikkinchi yarmi	Resurs salohiyati nazariyasi (RBV)	J.Barney, B.Wernerfelt	Korxonaning ichki resurslari va imkoniyatlari ustuvor omil hisoblanadi	Noyob va taqlid qilib bo‘lmaydigan resurslar (VRIN)
	XX asr oxiri	Asosiy kompetensiyalar nazariyasi	C.K.Prahalad, G. Hamel	Bilimlar va kompetensiyalar strategik ustunlik manbai hisoblanadi	Intellektual kapital va kompetensiyalar
	XXI asr boshlarida	Dinamik qobiliyatlar nazariyasi	D.Teece	Korxonaning o‘zgaruvchan muhitga moslashish qobiliyati ustuvor ahamiyatga ega	Resurslarni qayta konfiguratsiya qilish va innovatsion moslashuvchanlik

¹ Manba: Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

Bosqich	Davr	Nazariya/Yondashuv	Asosiy vakillar	Asosiy mazmuni	Raqobat ustunligi manbai
V-bosqich	XXI asr	Institutsional yondashuv	D.North, K.Kurpayanidi va boshqalar	Raqobatbardoshlik biznes muhiti va institutlar sifati bilan bog'liq	Institutsional muhit, davlat siyosati, biznes infratuzilmasi
	XXI asr	Hududiy va klaster yondashuvi	M.Porter, V.Vidyapin	Hududiy integratsiya va klasterlashuv raqobat ustunligini kuchaytiradi	Klasterlar, kooperatsiya va tarmoq aloqalari
	XXI asr	Raqamli iqtisodiyot va transformatsiya nazariyalari	R.Bukht, R.Hicks, R.Heeks, N.Kononkova	Raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar strategik resursga aylanadi	Raqamli yetuklik, ma'lumotlar, sun'iy intellekt, platformalar

Yuqoridagi jadvalda raqobatbardoshlik nazariyalarining evolyutsion rivojlanishi iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tahlil ishlarimizga ko'ra, raqobatbardoshlik tushunchasi dastlab iqtisodiy samaradorlik va bozor muvozanatini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qilingan bo'lsa, hozirgi zamonaviy bosqichda innovatsion, institutsional va raqamli omillarni qamrab oluvchi kompleks iqtisodiy kategoriya darajasiga yetgan.

Jadvaldagi birinchi bosqich klassik iqtisodiy maktab vakillari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ushbu davrda raqobat iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralgan. Adam Smit, David Rikardo va Alfred Marshall tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar bozor mexanizmi, nisbiy ustunlik va ishlab chiqarish samaradorligini raqobat ustunligining asosiy manbalari sifatida e'tirof etadi. Mazkur nazariyalar korxonalarning muvaffaqiyati resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni minimallashtirish bilan bog'liqligini asoslab bergan. Shu bilan birga, klassik yondashuvlar innovatsion faoliyat, boshqaruv sifati va bilimlar kapitali kabi zamonaviy omillarni yetarlicha qamrab olmaganligi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqichda shakllangan tadbirkorlik nazariyasi raqobatbardoshlikning iqtisodiy mazmunini sezilarli darajada kengaytirgan. Richard Kantilon va Frenk Nayt tadqiqotlarida tadbirkor risk va noaniqlik sharoitida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyekt sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvning muhim jihati shundaki, unda raqobat ustunligi nafaqat moddiy resurslar, balki tavakkalchiliklarni boshqarish va moslashuvchan qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Natijada raqobatbardoshlik tushunchasi iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda boshqaruv va tadbirkorlik kompetensiyalarini ham o'z ichiga ola boshlagan.

Keltirilgan uchinchi bosqich innovatsion rivojlanish nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, Yozef Shumpeter tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv raqobatbardoshlik nazariyasining keyingi taraqqiyotida muhim burilish yasagan. Muallif innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanish va raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida baholagan. Ushbu bosqichdan boshlab korxonaning muvaffaqiyati ishlab chiqarish xarajatlari yoki mavjud resurslari bilan emas, balki yangi mahsulotlar

yaratish, texnologiyalarni joriy etish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish qobiliyati bilan bog‘lana boshlagan. Bugungi bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ushbu nazariya o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

To‘rtinchi bosqich strategik va resurs yondashuvlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan strategik yondashuv korxonaning bozordagi pozitsiyasi va raqobat ustunliklarini shakllantirish mexanizmlarini izohlashga qaratilgan. Xarajatlar ustunligi, differensiallashuv va qiymat zanjiri konsepsiyalari ushbu nazariyaning asosiy tarkibiy elementlari hisoblanadi. Shu bilan birga, J.Barney va B.Vernerfelt tomonidan ishlab chiqilgan resurs salohiyati nazariyasi korxonaning ichki resurslarini raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida ko‘rsatadi. Ayniqsa VRIN modeli noyob, qimmatli va taqlid qilib bo‘lmaydigan resurslarning ahamiyatini asoslab bergan. Mazkur bosqichning mantiqiy davomi sifatida C.K. Prahalad va G.Hamel tomonidan asosiy kompetensiyalar nazariyasi hamda D.Teece tomonidan dinamik qobiliyatlar nazariyasi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlarda korxonaning bilimlari, intellektual kapitali va o‘zgaruvchan muhitga moslashish qobiliyati strategik ustunlikning muhim manbalari sifatida qaralgan. Bu esa raqobatbardoshlikning statik emas, balki dinamik kategoriya ekanligini ko‘rsatadi.

Beshinchi bosqich zamonaviy iqtisodiyot sharoitida shakllangan institutsional va raqamli yondashuvlarni qamrab olgan. D.North va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan institutsional yondashuv korxona muvaffaqiyatini biznes muhiti, davlat siyosati va institutsional infratuzilma bilan bog‘lagan. Shu bilan birga, hududiy va klaster yondashuvlari korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik va kooperatsiyaning raqobat ustunligini oshirishdagi rolini asoslab bergan. Raqamli iqtisodiyot nazariyalari esa ma‘lumotlar, sun‘iy intellekt, platformali biznes modellar va raqamli texnologiyalarni zamonaviy raqobatbardoshlikning asosiy determinantlari sifatida e‘tirof etadi.

Umuman olganda, tahliliy jadval raqobatbardoshlik nazariyalarining evolyutsiyasi oddiy xarajat ustunligidan innovatsion, institutsional va raqamli ustunliklarga tomon rivojlanganligini ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda korxona raqobatbardoshligi alohida omillar bilan emas, balki strategik boshqaruv, resurs salohiyati, innovatsion faoliyat, institutsional muhit va raqamli texnologiyalarning o‘zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo‘lmoqda.

2-jadval

Raqobatbardoshlik nazariyalarining qiyosiy tavsifi¹

Nazariya	Tadqiqot obyekti	Asosiy omil	Kuchli tomoni	Cheklovi
Klassik	Bozor	Narx va xarajat	Iqtisodiy samaradorlikni tushuntiradi	Innovatsiyalar hisobga olinmaydi
Tadbirkorlik	Tadbirkor	Risk va noaniqlik	Moslashuvchanlikni tushuntiradi	Strategik omillar kam yoritilgan

¹ Manba: Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

Nazariya	Tadqiqot obyekti	Asosiy omil	Kuchli tomoni	Cheklovi
Innovatsion	Korxona	Innovatsiyalar	Dinamik rivojlanishni izohlaydi	Institutsional omillar chetda qoladi
Strategik	Tarmoq va korxona	Bozor pozitsiyasi	Tashqi muhitni tahlil qiladi	Ichki resurslar yetarli yoritilmaydi
Resurs salohiyati	Korxona	Ichki resurslar	Barqaror ustunlikni tushuntiradi	Dinamik muhitni to'liq aks ettirmaydi
Dinamik qobiliyatlar	Korxona	Moslashuvchanlik	Tez o'zgaruvchan muhitga mos	O'lash murakkab
Institutsional	Biznes muhiti	Institutlar sifati	Tashqi sharoitlarni hisobga oladi	Korxona ichki imkoniyatlari kamroq yoritiladi
Raqamli yondashuv	Raqamli ekotizim	Texnologiyalar va ma'lumotlar	Zamonaviy iqtisodiyotni tushuntiradi	Empirik metodologiyasi hali shakllanish jarayonida

2-jadvalda keltirilgan raqobatbardoshlik nazariyalarining qiyoslama tahliliy tavsifi mazkur ilmiy yondashuvlarning tadqiqot obyekti, asosiy determinantlari, afzalliklari va cheklovlarini tizimli ravishda baholash imkonini beradi. Jadvalning mazmuniga ko'ra, raqobatbardoshlik nazariyalari iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida shakllangan bo'lib, ularning har biri mazkur kategoriyaning alohida jihatlarini yoritishga qaratilgan. Shu sababli zamonaviy sharoitda raqobatbardoshlikni izohlashda biror nazariyaning alohida qo'llanilishi yetarli bo'lmay, ularning integratsiyalashgan yondashuvi muhimroq ahamiyatga deyishimiz mumkin. Shunday qilib, klassik nazariya raqobatbardoshlikni asosan bozor mexanizmlari orqali izohlaydi hamda narx va xarajat omillarini ustuvor determinant sifatida ko'radi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi iqtisodiy samaradorlik va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini tushuntirib berishidadir. Biroq zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar, texnologiyalar va bilimlar kapitalining ahamiyati ortib borayotganligi sababli klassik nazariyaning tushuntirish imkoniyatlari ma'lum darajada cheklanib qolmoqda. Tadbirkorlik nazariyasi esa raqobatbardoshlikning muhim elementi sifatida risk va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish qobiliyatini e'tirof etadi. Ushbu yondashuv korxonaning moslashuvchanligi va tadbirkorlik salohiyatini izohlashda samarali ekanligini ko'rsatgani bilan mazkur nazariyada korxona strategiyasi, resurs bazasi va tashqi muhit omillari yetarli darajada yoritilmaganligi uning asosiy cheklovi sifatida namoyon bo'ladi. Innovatsion nazariya raqobatbardoshlikning manbai sifatida innovatsiyalarni markaziy o'ringa qo'yadi. Ushbu yondashuv korxonalarning dinamik rivojlanishi, yangi mahsulotlar yaratishi va texnologik yangilanish jarayonlarini tushuntirishda katta ahamiyatga ega. Biroq institutsional muhit, davlat siyosati va tashqi iqtisodiy sharoitlarning ta'siri ushbu nazariyada yetarlicha aks ettirilmagan. Bu esa innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashqi omillarni baholash imkoniyatini cheklaydi. Strategik

yondashuvning muhim afzalligi korxonaning bozor pozitsiyasi va tashqi muhitini chuqur tahlil qilish imkonini berishi bo'lib, M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar korxonalarning tarmoq ichidagi mavqeyini va raqobat ustunliklarini aniqlashga xizmat qiladi. Biroq mazkur strategik nazariya korxonaning ichki resurslari va kompetensiyalariga nisbatan kamroq e'tibor qaratadi. Resurs salohiyati nazariyasi mazkur kamchilikni qisman bartaraf etadi hamda ushbu yondashuv korxonaning ichki resurslari, bilimlari va kompetensiyalarini barqaror raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, nazariya tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhit sharoitida resurslarning transformatsiyalanish jarayonlarini to'liq tushuntirib bera olmaydi. Aynan shu jihat dinamik qobiliyatlar nazariyasining shakllanishiga zamin yaratgan. Dinamik qobiliyatlar yondashuvi zamonaviy iqtisodiyot talablariga eng mos nazariyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. U korxonaning o'zgaruvchan muhitga moslashish, yangi imkoniyatlarni aniqlash va resurslarni qayta konfiguratsiyalash qobiliyatiga asoslanadi. Biroq mazkur nazariyaning amaliy qo'llanilishidagi asosiy muammo dinamik qobiliyatlarni miqdoriy o'lchashning murakkabligi bilan bog'liqdir. Institutsional va raqamli yondashuvlar esa raqobatbardoshlik nazariyalarining eng zamonaviy yo'nalishlarini ifodalaydi. Institutsional nazariya biznes muhiti, huquqiy tizim va davlat siyosatining ahamiyatini ochib bersa, raqamli yondashuv texnologiyalar, ma'lumotlar va sun'iy intellektning strategik rolini asoslaydi. Ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu nazariyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shuningdek, raqamli yondashuvning empirik bazasi va metodologik apparati hali ham shakllanish bosqichida ekanligi belgilab o'tish mumkin.

Umumiy holda, tahliliy jadval raqobatbardoshlik nazariyalari bir-birini inkor etmasligini, aksincha, mazkur kategoriyaning turli jihatlarini yoritishini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy korxona raqobatbardoshligini baholashda klassik, innovatsion, strategik, resurs, institutsional va raqamli yondashuvlarning afzalliklarini o'zida mujassamlashtirgan integratsiyalashgan konseptual modeldan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari raqobatbardoshlik nazariyalari iqtisodiyot fanining evolyutsion rivojlanishi jarayonida izchil takomillashib borganligini ko'rsatdi. Tahlillarimiz shuni tasdiqlaydiki, dastlab raqobatbardoshlik bozor muvozanati va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi omil sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi bosqichlarda tadbirkorlik, innovatsion faoliyat, strategik boshqaruv, resurs salohiyati va institutsional muhit bilan bog'liq holda rivojlangan. XXI asrga kelib esa raqamli transformatsiya, ma'lumotlar iqtisodiyoti va dinamik qobiliyatlar nazariyalari raqobatbardoshlikning yangi determinantlari sifatida shakllandi. Raqobatbardoshlik nazariyalarining qiyosiy tahlili ularning har biri mazkur kategoriyaning alohida jihatlarini yoritishini ko'rsatdi. Klassik nazariyalar iqtisodiy samaradorlikni, tadbirkorlik yondashuvi moslashuvchanlikni, innovatsion nazariya texnologik yangilanishlarni, strategik yondashuv tashqi muhitni, resurs salohiyati nazariyasi ichki imkoniyatlarni, institutsional va raqamli yondashuvlar esa zamonaviy iqtisodiyotning

tashqi hamda texnologik omillarini izohlashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mavjud nazariyalarning birortasi raqobatbardoshlikning barcha jihatlarini to'liq qamrab olmasligini ham aniqladik. Shu sababli, zamonaviy sharoitlarda korxonalar faoliyatini baholashda innovatsion salohiyat, resurslar, dinamik qobiliyatlar, institutsional muhit va raqamli texnologiyalarni o'zaro bog'liq hamda majmuaviy tarzda ko'rib chiqadigan integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq deb xulosalaymiz.

Raqobatbardoshlik tushunchasini esa korxonaning strategik, innovatsion, institutsional va raqamli imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali o'zgaruvchan bozor sharoitlarida barqaror raqobat ustunliklarini yaratish va saqlab qolish qobiliyatini ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida talqin va tasnif qilishlikni taklif qilamiz. Mazkur yondashuv kelgusida raqobatbardoshlikni baholashning yangi metodologik modellarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aripov, O. A. (2021). O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6, 15-24.
2. Азоев, Г. Л. (2010). Конкурентоспособность предприятия: стратегический анализ и управление. Москва: ИНФРА-М.
3. Barney, J. B. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. Journal of Management, 17(1), 99-120.
4. Bukht, R., & Heeks, R. (2017). Defining, conceptualising and measuring the digital economy. Development Informatics Working Paper, 68, 1-24.
5. Фатхутдинов, Р. А. (2019). Управление конкурентоспособностью организации. Москва: ИНФРА-М.
6. Hamel, G., & Prahalad, C. K. (1990). The core competence of the corporation. Harvard Business Review, 68(3), 79-91.
7. Heeks, R. (2018). Information and communication technology for development. London: Routledge.
8. Kurpayanidi, K. I. (2021). Institutional environment and entrepreneurship development in Central Asia. Economics and Innovative Technologies, 11(6), 1-12.
9. North, D. C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Porter, M. E. (1980). Competitive strategy: Techniques for analyzing industries and competitors. New York: Free Press.
11. Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. New York: Free Press.
12. Рубин, Ю. Б. (2019). Теория конкуренции и конкурентоспособности. Москва: Университет «Синергия».
13. Schumpeter, J. A. (1934). The theory of economic development. Cambridge, MA: Harvard University Press.
14. Teece, D. J., Pisano, G., & Shuen, A. (1997). Dynamic capabilities and strategic management. Strategic Management Journal, 18(7), 509-533.

15. Wernerfelt, B. (1984). A resource-based view of the firm. *Strategic Management Journal*, 5(2), 171-180.
16. Vaisov, D. I. (2024). Raqobatbardoshlik tushunchalarining mohiyati va tavsiflanishi. *University Research Base*, 65-69.
17. Vaisov, D. I. (2023). Kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolari (Xorazm viloyati misolida). *Green Economy and Development*, 1(11).
18. Sa'dullayev, A., Vaisov, D., & Egamberganov, F. (2023). Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida). *Green Economy and Development*, 1(6).
19. Vaisov, D. I., & Salayev, S. K. (2025). Tibbiy xizmatlar bozorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili. *Ma'mun Axborotnomasi*, 2(1), 58-63.
20. Vaisov, D. I. (2025). Tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini baholashni takomillashtirish. *Marketing Jurnal*, 11, 286-295.
21. Vaisov, D. I. (2025). Tibbiy xizmatlar bozorida tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari tahlili. *Marketing Jurnal*, 1(1), 281-290.
22. Vaisov, D. I. (2025). Reyting ustoychivosti subyektov predprinimatelstva kak mekhanizm obespecheniya konkurentosposobnosti predpriyatiy. *Ekonomika i Predprinimatelstvo*, 3(19), 833-837.
23. Vaisov, D. I. (2026). Directions for improving organizational mechanisms to ensure competitiveness of small businesses providing medical services. *International Conference on Science & Technology*, 2(1), 108-115.
24. Vaisov, D. I. (2026). Stages of improving the mechanisms for ensuring the competitiveness of small business entities providing medical services. *Nauchnyy Impuls*, 4(41), 86-92.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**